

ه (BE) PREFIKSI+ISM+YORDAMCHI FE'L MODELIDAGI QO'SHMA FE'LLAR XUSUSIDA

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Guliston" asarida uchraydigan ه (be) prefiksli qo'shma fe'llar tahlilga leksik-semantik va lisoniy xususiyatlari tortilgan. Tarkibida prefiksi mavjud bo'lgan qo'shma fe'llar borasida eron tilshunoslarining qarashlari keltirilgan, ularga munosabat bildirilgan.*

Qo'shma fe'llarning bu turi tarkibida prefiksga ega ekanligi bilan boshqa qolipdagi qo'shma fe'llardan tuzilishi bo'yicha farqlanadi. Quyida ba'zi eron tilshunoslarining qo'shma fe'llarning mazkur tipi borasidagi qarashlarini keltiramiz.

Ahmad Giviy prefiksli qo'shma fe'llarni "tarkibli qo'shma fe'llar" nomi ostida tuzilishiga ko'ra fe'l turkumining alohida bir guruhi sifatida ko'rsatadi va quyidagi ta'rifni keltiradi: "Bir necha so'zlarning bir guruh shaklida birlashuvi natijasida yagona fe'lning ma'nosi kelib chiqadigan, ma'nosi aksariyat holatlarda bir sodda yoki qo'shma fe'l bilan muodil bo'ladigan fe'llarga aytiladi". Mazkur guruhga esa "prefiks+ism+fe'l" modelidagi quyidagi fe'llarni misol tariqasida ko'rsatadi: *bar pā kardan, be kār gereftan, az chašm oftādan, az sar gereftan, be sar bordan, be pāyān āmadan*".

Aslida "prefiks+ism+fe'l" modelidagi fe'llarni qo'shma fe'llarning bir turi sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularni "ism+prefiksli fe'l" modelidagi qo'shma fe'llardan farqlash lozim.

Yana bir tilshunos Mahdiy Muiyniyon esa qo'shma fe'llarning "prefiks+ism+fe'l" modeli turi haqida fikr yuritib, ularga quyidagicha ta'rif keltiradi: "Gohida fe'l prefiks, ism va sodda fe'l kabi uch qismdan ham tuzilishi mumkin, bu holatda ham u qo'shma fe'l sanaladi: *az beyn raftan, be jāy āvardan, dar miyān nehādan, az dast dādan*".

"Prefiks+ism+fe'l" modeli qo'shma fe'llarning tarkibiy qismi sifatida *be, az, bar, dar* kabi prefikslarning kelishi ularning xarakterli xususiyatidir. Aksariyat holatlarda prefikslar o'zining grammatik ma'nosini tamoman yo'qotadi va fe'lning umumiy semantikasiga singishib ketadi.

"Guliston" asarida *be prefiksi+ism+fe'l* qolipidagi qo'shma fe'llar son jihatdan boshqa prefikslar bilan keluvchi qo'shma fe'llarga nisbatan ko'proq uchraydi. Quyida *be prefiksi+ism+fe'l* qolipidagi qo'shma fe'llarning "Guliston" asarida kelishi va ularning ba'zi lisoniy xususiyatlarini tahlilga tortamiz.

ه (be) prefiksi boshqa prefikslardan farqli holda o'zidan keyin kelayotgan so'zga qo'shib yoki alohida holda kela olishi mumkin. Mazkur prefiksning bu xususiyati *be prefiksi+ism+fe'l* qolipidagi qo'shma fe'llarning morfem tarkibiy qismi sifatida kelganida

ham saqlanadi. “Guliston” asarida ham be prefiksining ba’zi o’rinlarda alohida, ba’zi o’rinlarda so’z o’zagiga qo’shilgan holda kelishi kuzatiladi:

بارى پدر به کراهت و استحقار در او نظر می کرد. پسر بفراسست استبصار بجای آورد و گفت...

*Bāri pedar be karāhat-o estehqār dar u nazar mikard, pesar befarāsat estebsār **bejāy āvard**-o goft.* (Guliston, 4-bet.)

Mazmuni: *Bu jihatdin otasi unga nopisandlik va haqorat bilan nazar qilar edi. Shahzoda bu holni farosat va basorat bilan **bilib**, dedi.*

Be jāy āvardan (so’zma-so’z “o’rniga, joyiga keltirmoq”) fe’li Dehxudo lug’atida qo’shma fe’l sifatida qayd etilib, uning beshta ma’nosi ko’rsatiladi. Yuqoridagi misoldan ham ko’rinadiki, *be jāy āvardan* fe’lining morfem strukturasi taksonomik birligi sifatida ishtirok etgan **āvardan** fe’li “keltirmoq”, **jāy** so’zi esa “o’rin, joy, makon” ma’nolarini, **be** (be) prefiksi esa “yo’nalish, tomon” grammatik ma’nosini saqlamagan.

Quyida keltirilgan misolda ham *be jāy āvardan* fe’lining prefiksi *be* ism qismga qo’shilgan holda kelganligini ko’ramiz:

ای جوان مرد! سلطان روی زمین از کنار تو گذر کرد چرا به او احترام نکردی و شرط ادب را در برابرش **بجا** نیاوردی؟

*Ey javānmard! Sultān-e ruy-e zamin az kenār-e to gozar kard čerā be u ehtirām nakardi va šart-e adabrā dar barābarāš **bejā nayāvardi?*** (52b)

Tarjimasi: *Ey darvesh, yer yuzining podshohi sening yoningdan o’tdi. Nechun unga ehtirom ko’rsatmading va qarshisida adab shartini bajo keltirmading?*

Be-jā (prefiks+ot) – *bajo* (tub so’z). O’zbek tiliga madaniy, ijtimoiy, lisoniy va siyosiy aloqalar sababli juda ko’plab fors-tojikcha so’zlarning o’zlashganligi, o’zbek tilining leksik tarkibidan joy olganligi tarjima jarayonida qo’l keladi. Aynan shuning uchun ham aksariyat o’rinlarda o’zbek tilining leksik tarkibiga singishgan, nutqda faol qo’llanadigan forsiy, arabiy so’zlar tarjimasiz o’zi beriladi. (Biz ham tarjimada *be jāy āvardan* fe’lining semantik muqobili sifatida *bajo* keltirmoq so’zi berishni ma’qul topdik).

Quyidagi jumlada ham yuqoridagi kabi **be** (be) prefiksining o’zidan keyin kelgan so’zga qo’shilgan holda kelganini ko’rish mumkin:

به پدرم گفتم: از این خفتگان یک نفر برخواست تا دو رکعت نماز بجای آورد

*Be pedaram goftam: az in xoftegān yek nafar bar xāst tā du rakat namāz **bejāy āvard**.* (G. 74-bet).

Mazmuni: *Otamga dedim: “Bu uyqudagilardan birortasi turib, ikki rakat namoz ado qilmaydilar”.*

Quyidagi misolda esa qo’shma fe’l semantik yo’l orqali tarjimada muvofiqlashgan:

اسب لاغر میان به کار آید
روز میدان نه گاو پرواری

*Asb-e lāğarmiyān **be kār āyad**,*

Ruz-e meydān na gāv-e porvāri. (G. bet)

Mazmuni: *Jangda ozg'in ot bakor keladi, semiz ho'kiz emas.*

“Dehxudo” lug‘atida ushbu so‘z qo‘shma fe‘l sifatida qayd etilib, uning *foydali bo‘lmoq, foydasi bor bo‘lmoq, kerak bo‘lmoq, munosib bo‘lmoq, loyiq va sazovor bo‘lmoq, maqbul bo‘lmoq, xush kelmoq* kabi ma‘nolari berilgan.

Aksariyat *be* (به) prefiksli fe‘llarda prefiksning ism qismiga qo‘shilgan holatda kelganini ham kuzatish mumkin, ushbu prefiks uchun bu normal holat bo‘lib, uning maxsus lisoniy xususiyati hisoblanadi. Uning ism asoslariga qo‘shilgan va alohida holatda kela olishi “Dehxudo” lug‘atida ham qayd etilgan. Boshqa prefikslar bunday xususiyatga ega emas. Quyidagi jumla tarkibida به (*be*) prefiksli ikkita qo‘shma fe‘lni ko‘rish mumkin. Har ikki qo‘shma fe‘lda ham prefiks ism qismiga qo‘shilgan holda yozilgan:

قومی کہ از دست تطاول او بجان آمده بودند و پریشان شده و بر ایشان گرد آمدند و تقویت کردند تا ملک از تصرف این بدر رفت و بر آنان مقرر شد

Goumi-ke az dast-e tatāvul-e u bejān āmade budand va parišān šode va bar išān gerd āmadand va tayviyat kardand tā malek az tasarrof-e in bedar raft- u bar ānān moyarrar šod. (16b)

Mazmuni: *Uning zulm qo‘li joniga yetib borgan va parishon bo‘lgan bir qavm ularning atrofida jam bo‘ldilar va kuchaydilar, to mulk buning qo‘lidan ketib, ularga muqarrar bo‘ldi.*

“Dehxudo” lug‘atida *bejān āmadan* fe‘lining “*tanglikda qolmoq, holdan toymoq, bezor bo‘lmoq, ozurda va noxush bo‘lmoq, o‘ldirmoq, o‘lim holatida bo‘lmoq, o‘limi yaqinlashmoq*” kabi ma‘nolari berilgan. *Bejān āmadan* fe‘li Y. Rubinchik tadqiqotlarida komponentlari orasidagi semantik aloqasiga ko‘ra modellashmagan qo‘shma fe‘llarning motivlashmagan ma‘noli turiga kiritiladi va quyidagicha ta‘rif beriladi: “Motivlashmagan ma‘noli qo‘shma fe‘llarda ism va komponent fe‘l o‘rtasidagi haqiqiy semantik aloqa to‘laligicha buziladi”. Xususan “*be prefiksi+ism+fe‘l*” modelidagi qo‘shma fe‘llarning katta qismini semantik jihatdan modellashmagan fe‘llar tashkil qiladi. Ya‘ni bu tipdagi qo‘shma fe‘llarning komponent qismlari o‘rtasidagi semantik aloqa akasariyat holatlarda to‘laligicha buziladi.

Prefiksli qo‘shma fe‘llarning ba‘zilarida ism qism sifatida inson a‘zolarini ifodalovchi *pā-* پا (*oyoq*), *sar-* سر (*bosh*), *dast-* دست (*qo‘l*), *česhm-* چشم (*ko‘z*) kabi somatik birliklar ham keladi. Somatik birliklarning “*ism+yordamchi fe‘l*” qolipidagi qo‘shma fe‘llarda ham ism qismi funksiyasida kelishini avvalgi qismlarda ko‘rib o‘tgan edik. Bu o‘rinda esa somatik birliklarning *prefiks+ism+fe‘l* qolipidagi qo‘shma fe‘llarda ism qismi funksiyasida kelishi borasida fikr yuritimiz. Aksariyat holatlarda *prefiks+ism+fe‘l* qolipidagi qo‘shma fe‘llarning har uch komponenti o‘zining semantik ma‘nosidan ayriladi. Quyidagi jumlada *be* predlogining alohida holatda kelishi kuzatiladi:

ملاخ را گفتم: لابد عمر او به سر آمده بود از این رو این یکی نجات یافت و آن دیگر به خاطر تخیر دست یابی تو به او هلاک گردید

Mallāhrā goftam: lābad omr-e u be sar āmade bud. Az in ru in yeki nejāt yāft-o ān digar be xāter-e taxayyir-e dastyābi-ye tu be u halāk gardid. (41b)

Tarjimasi: *G'avvosga dedim: Uning umri tugagan edi, shu sababdan biri najot topti, boshqasi esa sening qutqarishing kechikishi oqibatida halok bo'ldi.*

Ushbu jumladagi *be sar āmadan* (so'zma so'z boshiga kelmoq) fe'li tarkibidagi *be (ga)*, *sar (bosh)*, *omadan (kelmoq)* o'zining ma'nosini saqlamagan.

بدین امید به سر شد دریغ عمر عزیز
که آنچه در دلم است از درم فراز آید

*Bedin omid be sar šod dariy, umr-e aziz,
Ke ānče dar delam ast, az daram ferāz āyad.*

Mazmuni: *Aziz umr, afsuski, har neki dilimda bo'lsa, eshigimdan kirib keladi degan umid bilan o'tdi.*

"Dehxudo" lug'atida *be* prefiksi ism qismiga qo'shilgan holatda (*besar šodan* – بسر شدن) berilib, uning *oxir bo'lmoq, tugamoq, poyoniga yetmoq*" kabi ma'nolari keltirilgan. Misol tariqasida esa Sa'diyning aynan shu biz yuqorida ko'rsatgan bayti beriladi.

Be prefiksi+ism+āvardan modeli asosida yasalgan qo'shma fe'llar fors tili nuqtayi nazaridan o'timli fe'l hisoblanadi.

چو عضوی به درد آورد روزگار
دگر عضوهارا نماند قرار

*Ču uzvi be dard āvarad ruzgār,
Digar uzvhārā namānad qarār. (22b)*

Mazmuni: *Agar hayot biror a'zoga dard kiritadigan bo'lsa, boshqa a'zolarida ham halovat qolmaydi.*

Be dard āvaradan- به درد آوردن va *be dard āmadan* - به درد آمدن fe'llari ayni bir fe'l leksemaning valentlikka ko'ra farq qiluvchi ikki grammatik shaklidir. Uning *be dard āmadan (og'rimoq, kasal bo'lmoq)* shakli o'timsiz fe'l bo'lib, agens valentligiga ega va bosh kelishigi shaklidagi ot, olmosh va otlashgan so'zlarni boshqaradi. *Be dard āvaradan* esa fe'lning o'timli shakli bo'lib, agens valentligidan tashqari, obyekt valentligiga ham ega va u را (rā) suffiksini qabul qilgan ot, olmosh va otlashgan so'zlarni boshqarib keladi.

Quyidagi jumalalarda ham *āmadan* (kelmoq) va *āvardan* (keltirmoq) fe'llari bir qo'shma fe'lning o'timli va o'timsiz shakllarini hosil qilgani kuzatiladi.

"Guliston" asarida *be* prefiksining murakkab qolipli qo'shma fe'llarning morfem tarkibiy qismi vazifasida kelishi ham uchraydi:

بی خبر از قول حکیمان که گفته اند هر که خدای را عز و جل بیازارد تا دل خلقی به دست آرد خداوند تعالی
همان خلق را بر او گمارد تا از روزگارش بر آرد

Bixabar az yavl-e hakimān-ke, gofteand har-ke xudāyirā a'z-u jall beyāzārad tā del-e xalyi be dast ārad *Xodāvand-e Taālā hamān xalyrā bar u gomārad tā damār az ruzgāraš bar ārad. (40 b)*

Mazmuni: *Hakimlarning bu so'zidin bexabar, debdurlar: Har kishi bir yaratiqning ko'nglini olish uchun Yaratganning bir bandasiga ozor yetkizsa, Olloh taolo unga o'sha bandani musallat qiladi, to uning hayotidan halokatni chiqaradi.*

آبگینه همه جا یایی از آن قدرش نیست
لعل دشوار بدست آید از آن است عزیز

Ābgine hame jā hast, az ān yadras̄ nist
Laal došvār bedast āyad, az ān ast aaziz.

Mazmuni: *Chig'anoq hamma joyda borligi uchum qadri yo'q, la'lning qo'lga kiritilishi mushkuldir shuning uchun qimmatbahodir.*

“Guliston” da uchraydigan ba’zi qo’shma fe’llarning komponentlari o’z leksik ma’nosini tamoman yo’qotgan ya’ni qo’shma fe’lning umumiy semantik ma’nosi qismlarining ma’nosidan kelib chiqmaydi. Quyida keltirilgan jumladagi *besar bordan* (بسر بردن – so’zma-so’z *boshiga olib bormoq*) fe’li idiomatik xarakter kasb etgan. Uning morfemik qismlari *be-* به (*ga, ichiga*), *sa-* سر (*bosh*), *bordan* بردن (*olib bormoq, kesmoq*) o’zining leksik ma’nosini saqlamaydi:

Malek farmud ostādrā xel’at-o ne’mat dādan va pesarrā zajr-o malāmat kard-ke, bā parvarde-ye xiš da’vā moyāvemmat kardi va besar nabordi. (51b)

Tarjimasi: *Podshoh ustozga xil’at va ne’matlar berishni buyurdi, shogirdga esa malomat va dashnom berdi va dedi: “Nima uchun tarbiyat qilgan ustozingga bevafoqlik qilib, unga qarshi chiqding”?*

“Dehxudo” lug’atida *besar bordan* fe’lining *vafo qilmoq, ahdiga sodiq qolmoq tamon qilmoq, oxiriga yetkazmoq, vaqt o’tkazmoq, hayot kechirmoq, yashamoq, g’amxo’rlik qilmoq, o’ldirmoq* kabi ma’nolari berilgan. Yuqoridagi jumlada *besar bo’rdan* fe’lining o’tgan zamon bo’lishsiz shakli berilgan. نه (*na*) prefiksi fors tilida fe’llarning bo’lishsiz shaklini hosil qiluvchi maxsus affiksdir:

Besar nabordi → *bevafoqlik qilib*. “*Be*” unsuri o’zbek tiliga fors –tojik tilidan o’zlashgan so’z yasovchi prefiksdir. Bu prefiksning so’z yashash sathiga xos funksional-semantik muqobili suffiks xarakteridagi so’z yasovchi “-siz” affiksi bo’ladi (m., *bevafo* – *vafosiz*). Shuning uchun “*be*” va “*ma*” affikslari munosabatida so’z yasash sathlariga xos funksional-semantik muqobillik yo’q. Ularning o’xshashligi shu unsurlarning pragmatik jihatiga ko’ra bo’lib, ular inkor ma’nosini ifodalash jihatidagina funksional-pragmatik yaqinlikka ega. Aynan shu yaqinlik asliyat va tarjimaning ma’nosini aynanlashtiradi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, mazkur prefiks bilan keluvchi qo’shma fe’llarning tarkibiy qismlari aksariyat holatlarda o’zining leksik ma’nosini yo’qotadi va qo’shma fe’lning umumiy ma’nosi qismlarning ma’nosidan kelib chiqmaydi. *Be* prefiksi ham o’zining grammatik ma’nosini yo’qotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- ۲۰۱۱-حسن احمدی گیوی و حسن انوری. دستور زبان فارسی. انتشارات فاطمی. تهران.
- مهدی معینیان. دستور زبان فارسی. تهران: ۱۹۹۰. ص. ۱۵۲.
- لغتنامه ده خدا. علی اکبر ده خدا جلد ۳. ص ۱۵۵۴.
- Ю.А. Рубинчик. Основы фразеологии современного персидского языка. – Москва: Наука, 1981. – С. 168.